



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RI SIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020–2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoirazimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduraxim Abduraximovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	122
Анвар Аллаберганов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MECHANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloyevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li	
DEMOKRATIK TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI	266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
Ibadov Shoxrux Axmatilloevich	
EKONOMETRIK MODELASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
Musayeva Shoira Azimovna	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI	303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi	
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	309
Mustafayeva Sevara Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	314
Qodirova Farangiz Komilovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....	320
Sardor Kuvandikov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	329
Madenova Elmira Nizamatdinovna	
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH	340
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	349
Jannazarova Gauxar Kaipnazarovna	
Raxmatova Sevinch Sobir qizi	
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....	353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li	
Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna	



O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA

Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Buxgalteriya hisobi va marketing kafedrası doktoranti,

International School of Finance Technology and Science instituti o'qituvchisi

E-mail: samarokhonova@gmail.com

Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna

International School of Finance Technology and Science instituti bitiruvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga o'tish jarayonining korxonalar boshqaruv tizimiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda UzAuto Motors AJ tanlangan, kompaniyaning IFRS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlari va ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot natijalari IFRS moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchligini oshirib, strategik hamda operatsion boshqaruv qarorlarini yanada samarali qabul qilishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: IFRS, UzAuto Motors, moliyaviy hisobotlar, boshqaruv qarorlari, moliyaviy koeffitsiyentlar, moliyaviy barqarorlik, strategik boshqaruv, shaffoflik.

Abstract. The article analyzes the impact of the transition to International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan on the management system of enterprises. The study examined the financial statements of the selected company, UzAuto Motors JSC, prepared on the basis of IFRS, and their significance in making management decisions. The results of the study show that IFRS increases the transparency, comparability, and reliability of financial information and serves to make strategic and operational management decisions more effectively.

Keywords: IFRS, UzAuto Motors, financial statements, management decisions, financial ratios, financial stability, strategic management, transparency.

Аннотация. В статье анализируется влияние перехода на Международные стандарты финансовой отчётности (МСФО) в Узбекистане на систему управления предприятиями. В исследовании рассмотрена финансовая отчётность выбранной компании АО «UzAuto Motors», подготовленная на основе МСФО, и её значение для принятия управленческих решений. Результаты исследования показывают, что МСФО повышают прозрачность, сопоставимость и достоверность финансовой информации, а также способствуют более эффективному принятию стратегических и оперативных управленческих решений.

Ключевые слова: МСФО, UzAuto Motors, финансовая отчётность, управленческие решения, финансовые коэффициенты, финансовая устойчивость, стратегическое управление, прозрачность.


KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida global iqtisodiyotning rivojlanishi va xalqaro investitsiyalar hajmining ortib borishi korxonalardan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashni talab etmoqda. Bu esa mamlakatga investitsiyalar oqimini yaxshilash, moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish hamda moliyaviy hisobotlardan boshqaruv qarorlarini asoslashda samarali foydalanish imkonini bermokda. Bunga erishishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) muhim o'rin tutadi. Moliyaviy hisobotlar korxona faoliyati to'g'risidagi eng muhim axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Rahbariyat ushbu ma'lumotlar asosida investitsiya, moliyalashtirish, xarajatlarni boshqarish va kelajakdagi rivojlanish bilan bog'liq qarorlarni qabul qiladi. Shuning uchun moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va ishonchli shakllantirilishi boshqaruv samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga o'tkazish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yildan boshlab yirik aksiyadorlik jamiyatlari va davlat ulushi mavjud korxonalarda IFRSni joriy qilish bo'yicha huquqiy asoslar yaratildi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarorida [1] mamlakatimizda IFRSga o'tish jarayonini jadallashtirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Mazkur qaror milliy korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va ularni xalqaro miqyosda boshqa korxonalar bilan solishtirish imkonini beradi. Bu esa UzAuto Motors kabi yirik korxonalarda moliyaviy axborotdan nafaqat tashqi hisobot, balki boshqaruv qarorlarini asoslash vositasi sifatida foydalanish zaruratini kuchaytiradi. Bundan tashqari, 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son qarorda moliyaviy hisob tizimiga xalqaro talab va standartlarni keng joriy etish islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida belgilandi [2]. Qarorda jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari, auditori va boshqaruviga alohida talablar joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu esa korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligi nafaqat tashqi foydalanuvchilar, balki ichki boshqaruv qarorlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.


IFRSning asosiy maqsadi moliyaviy axborotlarning sifati va shaffofligini oshirish orqali investorlar, kreditorlar hamda menejerlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratishdan iborat [3]. IFRSga o'tish nafaqat tashqi foydalanuvchilar, balki korxona rahbariyatining qaror qabul qilish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi [4]. Xalqaro amaliyotda ham IFRS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar investorlar, kreditorlar va korxona rahbariyati uchun qaror qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida qaraladi [5].



1-rasm. IFRS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot axborotidan foydalanuvchilar[6].

Moliyaviy hisobotlar boshqaruv qarorlarining asosiy manbasi hisoblanadi. IFRS asosida tayyorlangan hisobotlar korxonaning aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlarini iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib aks ettiradi [7]. Moliyaviy hisobotlarni to'g'ri talqin qilish orqali uning foydalanuvchilari korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, menejerlar moliyaviy hisobotlardan bo'limlar samaradorligini baholash yoki KPI tizimini joriy qilishda foydalanishlari mumkin, xodimlar esa o'zlarining kelajagini kompaniya bilan bog'lash va uzoq muddatli rejalar tuzish uchun ishlatishlari mumkin. Ichki auditorlar korxonaning ichki tekshiruvlarida qo'llashlari mumkin bo'ladi [8].

IFRS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni to'g'ri talqin qilish uning foydalanuvchilariga quyidagi boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashga yordam berishi mumkin:



2-rasm. IFRS asosida moliyaviy hisobotlarning boshqaruv qarorlariga ta'siri[6].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda keys-stadi yondashuvi, hujjatli tahlil va moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida UzAuto Motors AJ tanlandi. Tahlil uchun kompaniyaning 2023–2024-yillar bo'yicha Deloitte LLC tomonidan audit qilingan IFRS asosidagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asos qilib olindi. Tadqiqotda foydalilik, samaradorlik, likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari hisoblandi hamda ushbu ko'rsatkichlar boshqaruv qarorlarini baholash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

UzAuto Motorsda IFRSning joriy etilishi va natijalari

O'zbekistondagi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi "UzAuto Motors" aksiyadorlik jamiyati 1996-yil 17-martda rasman tashkil topgan. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida MHXS (IFRS) standartlariga 2018–2019-yillardan boshlab o'tgan [9]. Bu esa kompaniyaning xalqaro moliya bozorlariga chiqishi va xorijiy investorlar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirgan.

2023–2024-yillar moliyaviy natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, IFRS asosida tayyorlangan hisobotlar menejmentga korxona faoliyatining samaradorligini aniq baholash imkonini bergan. Ushbu ma'lumotlar manbasi sifatida "Deloitte" xalqaro auditorlik korxonasi tomonidan audit qilingan IFRS hisobotlaridan foydalanildi [9].

1-jadval. UzAuto Motors AJning 2023–2024-yillardagi foydalilik koeffitsiyentlari tahlili[9].

UzAuto Motors: Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili				
Koeffitsiyent	2023	2024	O'zgarish	Trendlar
FOYDALILIK KOEFFITSIYENTLARI				
Jalb qilingan kapital rentabelligi	38,59%	29,65%	-8,94%	▼ Pasaygan
Yalpi foyda marjasi	13,68%	13,73%	+0,05	▲ Yaxshilangan
Operatsion foyda marjasi	10,18%	9,04%	-1,14	▼ Pasaygan
Sof foyda marjasi	7,24%	7,43%	+0,19	▲ Yaxshilangan



Kapital rentabelligining pasayishiga odatda bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi [10]. UzAuto Motors misolida kompaniyaning so'nggi yillarda, xususan, 2021–2023-yillarda Chevrolet Onix va Tracker modellarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda ularni lokalizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirgan yirik investitsion loyihalari ushbu ko'rsatkichga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Natijada kapital rentabelligi 2023-yildagi 38,59 foizdan 2024-yilda 29,65 foizgacha pasaygan. Bunday investitsion loyihalar dastlab kompaniyaning kapital va aktivlar hajmini oshiradi, lekin ularning to'liq moliyaviy samarasi keyingi davrlarda namoyon bo'ladi.

Yalpi foyda marjasi 2023-yilda 13,68 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 13,73 foizgacha biroz oshgan. Bu holat kompaniya ishlab chiqarish xarajatlarini nisbatan samarali boshqarganini va mahsulot sotishdan ko'proq foyda olganini ko'rsatadi. Operatsion foyda marjasi esa 2023-yildagi 10,18 foizdan 2024-yilda 9,04 foizgacha pasaygan. Bunga sotuv, boshqaruv, logistika va mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsion xarajatlarning oshgani ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Ya'ni kompaniya yalpi foyda darajasini saqlab qolgan bo'lsa-da, operatsion xarajatlarning ortishi operatsion rentabellikning pasayishiga olib kelgan.

Sof foyda marjasi 2023-yildagi 7,24 foizdan 2024-yilda 7,43 foizgacha yaxshilangan. Bunga kompaniyaning umumiy foydalilik darajasini saqlab qolgani sabab bo'lgan. Natijada sof foyda biroz yaxshilangan. Ushbu holatlar rahbariyat tomonidan qabul qilingan moliyaviy va operatsion qarorlar kompaniyaning rentabellik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi.

2-jadval. UzAuto Motors AJning 2023–2024-yillardagi samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili[9].

Samaradorlik ko'rsatkichlari (2023–2024-yillar)				
Aktivlar aylanuvchanligi	1,56	1,72	+0,16	▲ Yaxshilangan
Zaxiralarni saqlash muddati	114 kun	99 kun	-15 kun	▲ Yaxshilangan
Kreditorlik qarzlarini to'lash muddati	72 kun	47 kun	-25 kun	▲ Yaxshilangan
Debitorlik qarzlarini undirish muddati	14 kun	27 kun	+13	▼ Pasaygan

Jadvaldagi natijalar UzAuto Motors AJda aktivlardan foydalanish samaradorligi yaxshilanganini ko'rsatadi. Aktivlar aylanuvchanligi 1,56 martadan 1,72 martagacha oshgan bo'lib, bu har bir aktiv birligi hisobiga ko'proq daromad olinganini anglatadi. Ushbu holat rahbariyat tomonidan sotuv hajmini oshirish va aktivlarni boshqarish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ijobiy natija berganini ko'rsatadi.

Zaxiralarni saqlash muddati 114 kundan 99 kungacha qisqargani korxonada zaxiralar boshqaruvi samaradorligi yaxshilanganini bildiradi. Kreditorlik qarzlarini to'lash muddati 72 kundan 47 kungacha kamaygani kompaniyaning yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga intilayotganini ko'rsatadi. Biroq debitorlik qarzlarini undirish muddati 14 kundan 27 kungacha uzaygan bo'lib, bu pul mablag'larining aylanish tezligini sekinlashtirishi va likvidlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, samaradorlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar menejerlar tomonidan aktivlar, zaxiralar, kreditorlik va debitorlik qarzlarini boshqarish bo'yicha qabul qilingan qarorlar kompaniyaning operatsion samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

3-jadval. UzAuto Motors AJning 2023–2024-yillardagi likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili[9].

Likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili (2023–2024-yillar)				
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	1,12:1	1,40:1	+0,28	▲ Yaxshilangan
Tezkor likvidlik koeffitsiyenti	0,41	0,55	+0,14	▲ Yaxshilangan
Qarz koeffitsiyenti	35,28%	29,70%	-5,58%	▲ Yaxshilangan
Foizlarni qoplash koeffitsiyenti	8,23	12,28	+4,05	▲ Yaxshilangan

Likvidlik ko'rsatkichlariga ko'ra, joriy likvidlik koeffitsiyenti 2023-yildagi 1,12 dan 2024-yilda 1,40 gacha yaxshilangan. Bunga kompaniyaning savdo va boshqa kreditorlik qarzlarini kamaytirgani ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Natijada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati yaxshilangan. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti 0,41 dan 0,55 gacha oshgan. Bunga aylanma mablag'larni samaraliroq boshqarish va joriy majburiyatlarning kamayishi sabab bo'lgan. Natijada tezkor likvidlik yaxshilangan. Qarz koeffitsiyenti 35,28



foizdan 29,70 foizga kamaygan. Bunga kompaniyaning qarzlarini kamaytirish siyosati sabab bo'lgan. Natijada moliyaviy risk pasaygan va kapital tuzilmasi mustahkamlangan. Shuningdek, foizlarni qoplash koeffitsiyentining 8,23 martadan 12,28 martagacha yaxshilanishi korxonaning foiz xarajatlarini qoplash qobiliyati hamda moliyaviy barqarorlik darajasi yaxshilanganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, 2024-yilda UzAuto Motors AJning likvidlik va moliyaviy barqarorlik holati 2023-yilga nisbatan ijobiy rivojlangan. Ushbu o'zgarishlar rahbariyat tomonidan qarzlarini boshqarish, joriy majburiyatlarni kamaytirish va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha qabul qilingan moliyaviy qarorlar kompaniyaning likvidlik hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi.

Mahalliy kompaniyalarda IFRSni joriy etish jarayonida ayrim tashkiliy va uslubiy masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Birinchidan, malakali IFRS mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi ushbu jarayonda alohida e'tibor talab etadi. Ikkinchidan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash jarayoni sezilarli darajada yuqori xarajatlarni talab qiladi. Uchinchidan, moliyaviy hisobotlarni samarali yuritish uchun zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish zaruriyati mavjud. To'rtinchidan, bir xil ma'lumotlar turli darajadagi menejerlar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Natijada moliyaviy hisobotlar va amaliy boshqaruv qarorlari o'rtasida muvofiqlikni kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda MHXS (IFRS) standartlarini joriy qilish moliyaviy hisob tizimlarining shaffofligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. UzAuto Motors AJ tajribasi shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar faqat statistik axborot yoki rasmiy hisobot shakli emas, balki rahbariyat uchun muhim boshqaruv axboroti manbai hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarda aks etgan muhim ko'rsatkichlarni o'z vaqtida tahlil qilmaslik va ular asosida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilmaslik kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Moliyaviy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarni o'z vaqtida tahlil qilish va ular asosida to'g'ri qarorlar qabul qilish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy hisob va boshqaruv qarorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yirik korxonalarni samarali transformatsiya qilishning muhim omillaridan biridir. MHXS asosida shakllantirilgan sifatli moliyaviy ma'lumotlar strategik rejalashtirishni yo'lga qo'yish, risklarni boshqarish hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ishonchli asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>
3. Epstein, B. J., Jermakowicz, E. K. Wiley 2023 Interpretation and Application of IFRS Standards. Hoboken: John Wiley & Sons, 2023.
4. Alexander, D., Jorissen, A., Hoogendoorn, M., van Mourik, C., Kirwan, C. International Financial Reporting and Analysis. 8th ed. Andover: Cengage Learning, 2020.
5. Deloitte. IFRS in Your Pocket 2024. London: Deloitte Touche Tohmatsu Limited, 2024. URL: <https://www.iasplus.com>
6. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, 2018. URL: <https://www.ifrs.org>
7. BPP Learning Media. ACCA Financial Reporting (FR): Study Text. London: BPP Learning Media, 2024.
8. Kaplan Publishing. ACCA Financial Accounting (FA): Study Text. Wokingham: Kaplan Publishing, 2024. URL: <https://kaplanpublishing.co.uk>
9. UzAuto Motors AJ. Consolidated Financial Statements for the Year Ended 31 December 2024 and Independent Auditor's Report. Tashkent: Deloitte & Touche Audit Organization LLC, 2025. URL: <https://uzautomotors.com/documents/uzautomotorsifrsreportfy2024-30-may.pdf>
10. Kaplan Publishing. ACCA Financial Reporting (FR): Study Text. Wokingham: Kaplan Publishing, 2024. URL: <https://kaplanpublishing.co.uk>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>